

**Kalmuratov Bakhtiyor Seytmuratovich**

*ORCID: 0000-0001-8968-1946. PhD, Professor of the Department of Economics,  
Karakalpak State University. kalmuratovb@mail.ru*

**Kalbaeva Intizar Esenbai kizi,**

*Student of the Faculty of Economics, Berdakh State University*

**Saburov Ixlas Xemra oglı,**

*Student of the Faculty of Economics, Berdakh State University*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada iqtisodiyotni tartubga solish jarayonida pul-kredit siyoasati hamda uning rivojlanishi borasida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar.** *Iqtisod, pul, Tovar, jahon raqobati, pul-kredit, Markaziy bank, narx, inflatsiya, bandlik.*

Bugungi kunda iqtisodiy o'zgarishlar davri iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy va valyuta vositalarining roli, ahamiyati to'g'risidagi tasavvurni sezilarli darajada o'zgartirganligi va tobora rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish tizimida ularning ustuvorlikka erishganligi isbotini topgan. Hozirgi paytda davlat iqtisodiy siyosati, davlat moliyasi jahon bozorlari rivojlanishining ustuvor yo'naliшhlarini, shuningdek, jahon raqobati qoidalarni hisobga olishi kerak. Shu sababli ham davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatini yuksaltirish o'rinnlidir. Bugungi kunga kelib dunyo markaziy banklari, jumladan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank faoliyatining bosh mezoni bu-narxlar barqarorligi, inflyatsiyani nazorat qilish samaradorligidir. Hozirda ko'pchilik tomonidan umumiyligini qabul qilingan nuqtai nazar: narxlar barqarorligi, iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlash uchun zaruriy shart-sharoitni ta'minlashdir. Agarmamlakatda yuqori inflyatsiya uzoq muddat davom etishi iqtisodiyot uchun salbiy oqibatlarga olib keladi. Ayni vaqtda valyuta bozorini liberallashtirish borasidagi islohotlarning muvafaqqiyatlari tugallanishi ko'p jihatdan pul-kredit siyosatini takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini mustahkamlash hamda bank tizimini rivojlantirish choralari samaradorligi bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi vaqtga kelib davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatini amalga oshirishda davlat moliyasining ahamiyati yanada yuksaldi. Takror ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlash, xalqning moddiy va ma'naviy jihatdan farovon turmush tarziga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar barpo qilish, davlat organlarini mablag' tomonlama ta'minotini qoplash, davlatni idora qilish singari sohalarda yetakchi vosita sifatida o'rinn egalladi.

Pul-kredit siyosatini rivojlantirishning hozirgi bosqichda zamonaviy pul-kredit instrumentlarini joriy etish, amaldagilarni takomillashtirish va ularning ta'sir maxanizmini mustahkamlash, shuningdek ichki iqtisodiy cheklowlarni bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvor ravishda e'tibor

qaratilyapti. Pul-kredit siyosatini takomillashtirish va uning instrumentlari ro'lini kuchaytirish, bank tizimi likvidligini tahlil qilish va prognoz hamda pul bozoridagi operatsiyalar samaradorligini oshirish maqsadida 2018-2021 yillarda Xalqaro valyuta jamg'armasining maxsus texnik missiyalarini jalb qilish, xorijiy mamlakatlar markaziy banklari ilg'or tajribasini o'rghanish va o'zaro tajriba almashish amaliyotini kengaytirish ko'zda tutildi[1]. Bank nazoratini xalqaro amaliyot va andozalarga muvofiq holda takomillashtirilishi, bank tizimida raqobat muhitining kuchayishi hamda tijorat banklarining kredit siyosatida bozor mexanizmlarini keng qo'llashni davom ettirilishi, o'z navbatida, bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va pu-kredit siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Milliy iqtisodiyot xususiyatlarini inobatga olgan holda, pul-kredit siyosati rejimlarinig o'ziga xos jihatlari va ta'sirchanligi tahlili o'rta muddatli istiqbolda Markaziy bankning ustuvor maqsadi sifatida narxlar barqarorligiga erishish vazifasiga inflatsion targetlash rejimi juda mos kelishini ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, pul-kredit siyosatini amalga oshirishning tamoyil va usullarining inflatsion targetlashga bosqichma-bosqich yo'naltirish uchun zaruruiy huquqiy asoslar va tayanch iqtisodiy sharoitlar yaratildi[2]. O'zbekiston sharoitida mustaqil pul-kredit siyosatini yuritish imkoniyati 1994-yilda milliy valyutaning muomalaga kiritilganidan so'ng paydo bo'ldi. Ta'kidlash lozimki, so'nngi yillarda Respublikamizda pul-kredit sohasida ko'rilgan chora-tadbirlar inflatsiya darajasini asta-sekin pasaytirish imkonini berdi, makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o'sish suratlarini ta'minladi. Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023-2024 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda, birinchi navbatda, iqtisodiyotda narxlar va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, inflasiya darajasini 2023-yil yakuniga qadar 5% gacha pasaytirish maqsadlaridan kelib chiqilgan. Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarida Markaziy bankning o'rta muddatli makroiqtisodiy rivojlanish prognozlari va kelgusi yillarda pul-kredit sohasida amalga oshiriladigan ishlar, tashqi va ichki iqtisodiy sharoitlar o'zgargan holatlarda Markaziy bank tomonidan ko'rildigan choralar va pul-kredit siyosatini yuritishdagi yondashuvlar aks ettirilgan.

Iqtisodiy faollik yuqori sur'atlarda jadallahib borib, investitsion va iste'mol talabi pandemiyagacha bo'lgan darajaga to'liq tiklanadi. 2022 yilda yalpi ichki mahsulot hajmi o'zining potensial darajasiga ko'tarilib, real iqtisodiy o'sish sur'atlari 5,5-6,5 foizni tashkil etadi va 2023-2024 yillarda 6 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. [4] Mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifasi 2022 yildan bosqichma-bosqich fiskal konsolidatsiya boshlanishini taqozo qiladi va fiskal taqchillikning YaIMga nisbati 2023- 2024 yillarda 2,0-3,0 foiz atrofida shakllanishi prognoz qilinmoqda. Kelgusi yillarda operatsion mexanizmni yanada takomillashtirish va pul bozorini rivojlantirish bilan birgalikda, ichki valyuta bozorida islohotlarning navbatdagi bosqichini amalga oshirish, tahliliy-prognozlash salohiyatini rivojlantirish va pul-kredit siyosati transmisson mexanizmi samaradorligini oshirish borasida amalga oshiriladigan choratadbirlar Markaziy bankning diqqat markazida bo'ladi. Pul

kredit siyosatini amalga oshirishning pirovard maqsadlari iktisodiy o'sish, to'liq bandlikni, baxolarning hamda to'lov balansining barqarorligini ta'minlashdan iborat Markaziy bank umumiy pulkredit siyosatini amalga oshirsa, uning buyurtmasi davlatda faoliyat yuritadigan barcha kredit va moliya muassasalariga murojaat qiladi. Pul siyosatining maqsadlari va usullari iqtisodiyotda asosiy tarmoqlarni rivojlantirishni rag'batlantirish, davlatning bank infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarurligiga bog'liq.O'zbekiston Respublikasi bank tizimi - O'zbekiston Respublikasi moliya va pul-kredit tizimining uzviy qismi hisoblanadi. Respublikamizda bank tizimi ikki pog'onali bank tizimidan iborat bo'lib, o'z ichiga Markaziy bank va tijorat banklarini oladi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning bi-rinch bosqikbida kredit-pul siyosati sohasida quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish asosiy vazifalar qilib belgilandi:

- Markaziy bank boshchiligidagi hamda keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklar ikki bosqichli tizimini vujudga keltirish, respublika hududida yirik chet el banklarining bo'limlari hamda vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoitlarni yaratish;

- barqaror pul muomalasini ta'minlash, kredit va nakd pul emissiyasi, jami pul massasining asossiz o'sishini keskin cheklash;

- O'zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarni yaratish1.

Ushbu ustuvor yo'nalish va chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Uning asosida ikki bosqichli bank tizimi arnalda shakllandi. Markaziy bank emissiya banki bo'lib, uning zimmasiga boshqa rivojlangan mamlakatlardagi markaziy banklarga xos bo'lgan vazifalar yuklatildi. Sobiq tarmoq doirasida ish yurituvchi davlat banklari tugatilib, Agrosanoat banki va sanoat-qurilish banki ixtisoslashtirilgan hissadorlik-tijorat banklariga aylantirildi. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tuzildi va u muvaffaqiyatli ish olib bormoqda.

Hozirgi davrda, jahon bank amaliyotida puiga bo'lgan talab va taklifni, xususan, pul massasi, moliya bozorlari hamda bank tizimi likvidlilagini samarali tartibga solishda ochiq bozordagi operatsiyalar, hisob stavkasi siyosati, majburiy zaxiralar siyosati, valuta siyosati kabi bozor iqtisodiyotining bir qator zamonaviy vosita va mexanizmlari keng qo'Uanmoqda.

«O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'ri-sida»gi qonunda monetar siyosatning: ochiq bozordagi ope-ratsiyalar; Markaziy bankning hisob operatsiyalar; Markaziy bankning operatsiyalar bo'yicha foiz stavkalari; majburiy rezerv talablari va Markaziy bankning qayta moliyaviy ta'minlasih kabi vositalari qayd etilgan.

Pul-kredit siyosatining vositalari — Markaziy bank tomonidan pulga bo'lgan talab va taklifni tartibga solish hamda pul-kredit siyosatini amalga oshirish mexanizmidir. O'z navbatida, ushbu vositalar bevosita va bilvosita turlarga bo'linadi. Bevosita

vositalar — Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga nisbatan foiz stavkalari yoki kredit miqdorini belgilash va cheklashdan iborat bo'lgan ma'muriy usullardir. Bilvosita vositalar esa — Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasida ixtiyoriy ravishda foydalilaniladigan, ya'ni bozor orqali pulga bo'lgan talab va taklifni o'zgartirish, muomaladagi pul massasi miqdori va banklarning to'lovga qobiliyatligini tartibga solish usulidir.

Bevosita vositalarga - foiz stavkalarini chegaralash, maqsadli kreditlar, har bir bank uchun kreditning yuqori chegarasini belgilash kabi ma'muriy usul va choralar kiradi. Ular bir qator kamchiliklarga ega bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitlariga mos kelmaydi. Xususan, ular har bir bankka nisbatan qo'llanuvchi yakka tartibdagi nazorat qilish chorasi bo'lib, moliya bozorida raqobatni bo'g'ib qo'yadi, moliya sohasining rivojlanishini susaytiradi ya banklarning moliyaviy vositachilik rolini pasaytiradi. Shuningdek, bir qator banklar ustidan nazoratning o'rnatilishi natijasida alohida tarmoq va hududlarda kreditlashtirish samarasini pasaytiradi, katta miq-dordagi moliyaviy mablag'larning nazorat qilib bo'lmaydigan sohag'a, ya'ni xufiyona iqtisodiyotga yoki xorijga chiqib ketishiga olib keladi.

Bilvosita vositalarga - ochiq bozordagi operatsiyalar (davlatning va Markaziy bankning qimmatli qog'ozlarini birlamchi bozorlarda sotish), ikkilamchi bozordagi operatsiyalar (be-vosita oldi-sotdi yoki REPO operatsiyalari), qayta molialash siyosati, majburiy zaxira talablari, valuta siyosati, kredit auksionlari, valuta svoplari, veksellarni qayta hisobga olish mexanizmi, lombard yoki overdraft mexanizmlari va boshqalar kiradi. Ular bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladi va bevosita vositalarga nisbatan bir qator afzalliklarga ,ega. Jumladan, Markaziy bankka pul-kredit siyosati samarador-ligini oshirish, pul massasi, moliya bozorini samarali tartibga solish, davlatning kreditni taqsimlash va pul-kredit orqali boshqarish jarayonlariga aralashuvini kamaytirish, moliya bozorining rivojlanishi va kengayishiga, banklarning vositachilik rolini oshirish, kapital qo'yilma va moliyaviy jamg'ar-malar hajmining ko'payishiga qo'shimcha qulayliklar yaratadi.

Pul-kredit siyosati - bu mamlakat iqtisodiyotiga ko'pchilik, biznes tizimining subyektsiyasini buzmaydigan darajada ta'sir ko'rsatishi uchun juda samarali vositadir. Garchi ularning iqtisodiy erkinliklari doirasini cheklash (bu holda iqtisodiy faoliyatning har qanday tartibga solish imkonsiz, ammo ushbu fanlar tomonidan qabul qilingan asosiy qarorlar faqat bilvosita ta'sir qiladi. Pulkredit siyosati deganda, to'liq bandlik sharoitida yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarishga inflyatsiyaning ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Pul kredit siyosati davlat tomonidan belgilanadi va uni Markaziy Bank amalga oshiradi.Uning yordamida har qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifasini hayotga tadbiq etadi. 12Pulkredit siyosati bevosita va bilvosita vositalar orqali amalga oshiriladi:

1) Bevosita vositalar — moliyaviy institatlardagi moliyaviy aktivlar narxlari (foiz stavkalari)ni yoki ular hajmini to'g'ridan to'g'ri boshqarish orqali olib boriladi.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME6 ISSUE-10 (30- October)**

Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridagi mavjud depozit ko'rinishidagi pullarni hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar narxlari va hajmini ham nazoratda tutadi.

2) Bilvosita vositalar — Markaziy bank tomonidan moliyaviy institutlar resurslarita bozor mexanizmlari (majburiy zahira talablari, ochiq bozordagi operatsiyalar, tijorat banklarini qayta moliyalash va Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklaridan depozitlarni qabul qilish va boshqalar) orqali iqtisodiyotdagi pul massasiga ta'sir etadi.

Bulardan tashqari, Markaziy bank foydalanadigan vositalarning har biri foiz stavkalarining o'sishiga, kreditlash va qarz olish hajmini kamaytirishga, lozim bo'lganda foiz stavkalarini oshirishga yoki aksincha, tushirishga xizmat qiladi. Ochiq bozordagi operatsiyalar, majburiy eng kam zahiralarning bo'lishi, hisobga olish siyosati, valyuta siyosati pul-krediti siyosatining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Pul-kredit siyosati haqida gapirganda, albatta uning ob'yektlari va sub'yektlarini qatordan tushirib qolmaslik lozim. Negaki, pul-kredit siyosatining ob'yekt va sub'yektlari qaysidir ma'noda uning «tana a'zolari» hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyatning iqtisodiy jihatdan yuksalib borayotganligi valyuta bozorini liberallashtirish borasidagi islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko'pgina jihatdan pul-kredit siyosatini yuksaltirish, tijorat banklari faoliyatini yanada mustahkam qilish va albatta, bank tizimini ham rivojlantirish sohasidagi choralarning naqadar samaradorli ekanligiga chambarchas bog'liqdir. Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bir necha qaror va farmonga buyruq berdilar. Xususan, «Valyuta bozorini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlarining e'lon qilinganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmay, davlatimiz rahbarining «Pul-kredit siyosatini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida»gi qarorlari qavul qilindi. Hamda pul-kredit siyosatini 2017-2021-yillar davomida rivojlantirish va inflatsion targetlash rejimiga bosqichmabosqich o'tish bo'yicha ham chora-tadbirlar Kompleksi o'z tasdig'iga ega bo'ldi.

Kredit bozorlari banklararo kredit resurslari va pul bozorlarini o'z ichiga oladi. Banklararo kredit resurslari bozori ishtirokchilari faqat banklar hisoblanadi va u yerda banklarning likvi dlilagini doimiy ravishda ushlab turish maqsadida, ya'ni aktiv va passiv operatsiyalari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash uchun, asosan, qisqa muddatli vaqtincha bo'sh pul resurslari savdosi amalga oshiriladi. Banklarning mulkchilik shakllaridan qat'iy pazar bir-birlariga kredit resurslarining sotilishi va sotib olinishi ular o'rtasidagi bozor tamoyillariga mos ravishdagi gorizontal munosabatlarning kelib chiqishiga asos hisoblanadi. Pul bozorining ahamiyatli xususiyati uning ishtirokchilari va bitimlarning shakli turli-tumanligidan iborat. Pul bozorining ishtirokchilari banklar, korxona, tashkilot, muassasalar, moliyaviy muassasalar, sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari, kredit uyushmalari, investisya kompaniyalari va boshqalar bo'lishi mumkin. Pul bozorida ungabo'lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda uning bahosi, foiz vujudga keladi. Ushbu suda foizining darjasи pul-kredit siyosati vositalari ta'sir ko'rsatuvchilar hisoblanadi, ya'ni foiz

me'yoriga ta'sir ko'rsatish orqali muomaladagi pul massasiga ta'sir ko'rsatiladi. Shunday ekan, bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit orqali muvofiqlashtirishning obyekti pul bozoridagi talab va taklif hamda uning natijasida vujudga keladigan foiz me'yori hisoblanadi. Pul kredit orqali muvofiqlashtirish subyekti esa mamlakat Markaziy banki hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Barinov E.A. Valyutno-kreditnie otnosheniya vo vneshney torgovle. — M.:Federativnaya Knigotorgovaya Kompaniya, 1998.- 272s.
2. Barinov E.A. Rinki: valyutnie i stennix bumagi. — M.: "Ekzamen ", 2001.-608 s.
3. Rashidov A. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA NOTARIF USULLARINING ORNI VA AHAMIYATI //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
4. Xiao, K., Wang, Y., Whited, T. M., & Wu, Y. (2017). Market power and monetary policy transmission: Evidence from a structural estimation. Retrieved from [https://scihub.tw/https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=3049665](https://scihub.tw/https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3049665)
5. Pul-kredit siyosatini amalga oshirish Konsepsiysi - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/concept/>.